



Fozilbek XAMRAYEV,

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: Xamrayev-fozil@mail.ru

ff.d., dotsent O.Begimov taqrizi asosida

## THE ROLE OF THE ACTIVE LEXICON OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE NATIONALIZATION OF NEW BORROWED WORDS

### Annotation

This article is devoted to the issue of nationalization of new borrowed words in the Uzbek language. First of all, it is justified that the active lexicon of the current Uzbek language, as well as the experience of related Turkic languages and Persian and Arabic words actively used in the Uzbek language serve as the most important source for creating new national names.

**Key words:** new acquired words, active words, internal source, general Turkish words, nationalization, terms.

## РОЛЬ АКТИВНОГО ЛЕКСИКОНА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА В НАЦИОНАЛИЗАЦИИ НОВЫХ ЗАЙМЫВАННЫХ СЛОВ

### Аннотация

Данная статья посвящена вопросу национализации новых заимствованных слов в узбекском языке. Прежде всего обосновано, что активная лексика нынешнего узбекского языка, а также опыт родственных тюркских языков и персидских и арабских слов, активно используемых в узбекском языке, служат важнейшим источником для создания новых национальных названий.

**Ключевые слова:** новые заимствованные слова, активные слова, внутренний источник, общие турецкие слова, национализация, термины.

## YANGI O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILI FAOL LEKSIKASINING O'RNI

### Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tilidagi yangi o'zlashma so'zlarni milliylashtirish masalasiga bag'ishlangan. Unda, avvalo, hozirgi o'zbek tilining faol leksikasi, shuningdek, qardosh turkiy tillar tajribasi va o'zbek tilida faol qo'llanuvchi forscha va arabcha so'zlar yangi milliy nomlar yaratish uchun eng muhim manba bo'lib xizmat qilishi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** yangi o'zlashmalar, faol so'zlar, ichki manba, umumturkiy so'zlar, milliylashtirish, atamalar

**Kirish.** Til doimiy harakatda ekan, unda yangi-yangi tushunchalarning paydo bo'lishi barobarida yangi so'zlearning vujudga kelishi, shuningdek, bir qancha so'zlearning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi tabiiy holdir. Lekin tilning insonlar orasidagi o'zaro muloqotni ta'minlash (kommunikativ) vazifasidan tashqari, ma'lumotlarni jamlab, keyingi avlodlarga qoldirish, ya'ni avlodlarni bir-biriga bog'lash (akkumulyativ) vazifasi ham muhim ahamiyatga ega ekanligi inobatga olinsa, tildagi doimiy o'zgarishlar, yangilanishlarning muayyan noqulayliklarga ham sabab bo'lishi oydinlashadi.

O'zbek tilida bir necha yuz, hatto ming yillardan buyon faol qo'llanib kelayotgan ko'plab so'zlar mavjud. Bunday so'zlarga yangi semalar yuklash, ular asosida yangi so'zlar yashash tildagi yangi nomlarga bo'lgan ehtiyojning katta qismini to'ldira oladi. Shuningdek, yangi o'zlashmalarni milliylashtirishda ham faol leksikaning ahamiyati katta.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbek tilidagi yangi o'zlashmalar (o'zlashma neologizmlari)ni milliylashtirish masalasi bir qancha tilshunos olimlar: A.Hoziyev, E.Begmatov, M.Mirtojiyev, N.Mahmudovlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan. Xususan, M.Mirtojiyev va N.Mahmudovlarning "Til va madaniyat" kitobida milliy atamalarga ustunlik berilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan: "Faraz qiling, ma'lum bir fanning bir sohasida yuzga yaqin o'zlashtirilgan atama bor. Ularni talabalarga yodlatish kerak. Buning uchun kamida 20 kun sarflanadi. Bu atamalarni yodlay olganlarga shu atama mohiyatini tushuntirish tomoni ham turibdi. Ya'ni uch-to'rt oyning boshiga suv quyiladi. Shularning o'rniiga atamalar tilning o'z imkoniyatidan kelib chiqib yasalganda, ulardan foydalanuvchi atamalarning

o'zagiga-yu qo'shimchasiga qarab, o'zi anglab ketaverardi. Axir aloqa qiroli bo'lgan til foydalanuvchilar uchun shunday qulaylikka ega bo'lishi kerak emasmi?! O'z tilingdan tarjimon orqali foydalanish do'zaxga tushgandan badtardir" [1; 62].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma'lumki, leksik sath tilda kechayotgan evrilishlarning markazida turadi. Bu sathni maxsus qonun-qoidalar asosida me'yorlashtirish juda mushkul. Xususan, tilda paydo bo'lgan biror tushunchani qanday atash yoki biror xorijiy so'zni qanday qabul qilish masalasi har bir tilda doimo munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Tilning keng iste'moldagi faol so'zları va so'z yasash qoliplari ushbu masalaning yechimiga xizmat qiluvchi birlamchi mamba hisoblanadi.

**Tahvil va natijalar.** Hozirgi o'zbek tilida *tizim* so'zidan bir qancha sohalarda (siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, yuridik va boshqa) keng foydalaniladi. Dastlabki "O'zbek tilining izohli lug'ati" (O'TIL; 1981)da *tizim* so'zining birgina ma'nosi keltirilgan: "Ip, sim va shu kabilarga terilgan narsa; shoda. *Bir tizim marvarid. Bir tizim pomidor qoqi*" [2; 171].

Ushbu so'zning "Devonu lug'ati-t-turk" asarida ham ayni ma'noda qayd etib o'tilgani [3; 159] uning xalq tilida ming yillar davomida faol qo'llanib kelganidan darak beradi. Mustaqillikdan so'ng jamiyat hayotidagi kuchli ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar tufayli mazkur so'zga bir qancha qo'shimcha ma'nolar yuklandi, aniqrog'i, *tizim* so'zi sobiq sho'ro davrida rus tili orqali o'zlashgan *sistema* so'ziga muqobil sifatida tanlangach, *sistema* so'zining ma'nolari *tizim* so'zi orqali ifodalana boshladи. O'TILning keyingi nashrlarida *tizim* so'zining ma'nolari beshtaga yetganini ko'rish mumkin:

1) ip, sim va shu kabilarga terilgan narsa; shoda. *Bir tizim qalampir*.

2) bir soha, muassasa va sh.k. ga oid yo'naliш, ishfaoliyat kabilar majmuyi. *Bank tizimi, Xalq ta'limi tizimi*.

3) o'zaro bog'liq va uzviv tartibda bo'lgan narsa, hodisalar birligi majmuyi. *Barcha bo'g'indagi davlat idoralari faoliyatining huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladigan qonunlar tizimini barpo etish lozim*.

4) o'zaro bog'liq qismlardan tashkil topgan tuzilma, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatdan tuzilish shakli. *Ular, bizga ma'lum sabablarga ko'ra, "Markaz" deb ataluvchi eski tizimdan niroyatda bezillab qolishgan*.

5) biror ish-faoliyatni tashkil etish, amalgaloshirning shakl va tartib-qoidalar majmuyi. *Baholashning reyting tizimiga o'tildi*. [4; 308]

Bundan tashqari, *tizim* so'zi so'z yasashga asos qism vazifasini bajarib, keyingi paytlarda undan *tizimli*, *tizimlashtirmoq* kabi sifat va fe'l turkumiga oid yangi so'zlar hosil qilindi. Hozirgi kunda mazkur so'zlarning deyarli barcha sohalarda faol iste'molda ekanligi milliyashtirish yo'lida ulardan o'z o'rniда va oqilonqa foydalanganini ko'rsatadi.

*Yuklamoq* so'zi *yuk* va *-la* qismlaridan tarkib topib, 1) "yukni biror yuk tashish vositasiga ortmoq, joylamoq"; 2) "vazifa topshirmoq" ma'nolarida faol qo'llanib keladi [5; 299]. Navoiy ham o'z ijdida ushbu so'zning birinchi ma'nosidan foydalanganini kuzatish mumkin:

*Yuklab bari tuhfavu xizona*,

*Maqsad sari bo'ldilar ravona.* ("Layli va Majnun")

Kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi ma'lumotlarni elektron usulda yaratish, saqlash va uzatish ishlarining yanada qulaylashuviga imkon berdi. Shu jarayonda inglizchada *download*, ruschada *скачать* so'zları orqali ifodalanuvchi "elektron ma'lumotlarni boshqa qurilmalardan o'tkazib / ko'chirib olish" tushunchasi o'zbek tilida *yuklamoq* so'ziga yuklatildi va aytish mumkinki, *yuklamoq* so'zining genetik ma'nosini mazkur yangi tushunchani unga oson singdirish imkonini bergen, shuningdek, ushbu so'zning avvaldan faol iste'molda bo'lgani va barchaga tushunarli ekanligi uning jamiyat tomonidan oson qabul qilinishini ta'minladi.

*Yuklamoq* so'zining mazkur yangi ma'nosini hozircha O'TILda o'z ifodasini topmagan. Shu va shu kabi so'zlarning ma'no taraqqiyotini tahlil qilish, ularni dastlab sohaviy lug'atlar, keyinchalik umumiyl izohli lug'atlarda muntazam aks ettirib borish soha mutaassislarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Faol leksik qatlama turli sohalarga oid atamalar yaratish borasida ham asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, *bosim* (fizikada), *chiziqcha* (tilshunoslikda), *sinama* (tibbiyotda), *tanlov* (ko'p sohalarda), *cheirma* (savdosotiqa), *uyushma* (jamiatshunoslika) kabi atamalarni bunga misol sifatida keltirish mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tilida muayyan bir sohaga mansub atamalarning boshqa soha atamalari uchun asos bo'lib xizmat qilishi ko'p kuzatiladigan holatlardan biridir. Xususan, zoomimik atamalar bu jarayonda ancha faol.

O'zbek tilida termin hosil bo'lishining semantik usullari haqida tadqiqot olib borgan G'.Ismailovning ma'lumotlariga ko'ra, bиргина naqshning (o'yib, tikib, to'qib yoki bo'yoq bilan ishlangan) 50 dan ortiq turi hayvonot olamiga oid atamalardan kelib chiqqan. [6; 10] Shuningdek, hayvonlar nomlari, ya'ni zoonimlar o'simlik nomlarining hosil qilinishida ham faol qatnashadi. Masalan, *otquloq, bo'rikalla, ituzum, baqaterak, qushqo'rnmas, qo'zigul, ayiqtovon* kabi o'simlik nomlarining paydo bo'lishida zoonimlar asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbek tilining mustaqillik davri texnikaviy termin (atama)lari tarkibida *qobirg'a, og'iz, tirnoq, bo'yin, mush, qulqoq, panja, quti, kurakcha, pichoq, taroq, qozon, qoshig*

kabi ilmiy terminlar uchraydi va ular mashina asbob-uskunalarining biror-bir detali, qismini anglatish uchun xoslantirilgan, maxsuslashtirilgan so'zlardir. [7; 19]

Ko'rindiki, jonli tildagi faol so'zlar qatlami ilm-fan sohasini yangi milliy atamalar bilan boyitishda muhim rol o'ynaydi. Mustaqillik davriga mansub leksik yangilanishlarning aksariyati, asosan, ilmiy atamalar sohasiga to'g'ri kelishi [8; 8] e'tiborga olinsa, bundan keyingi istiqbolda ham atamalar yaratishda ko'proq o'zbek tilining faol so'zlar va so'z yasash qoliplarini ishga solish til egalari, ayniqsa, ilm fan bilan mashg'ul bo'lgan yoshlarning manfaatiga xizmat qiladi.

Albatta, tillar aralashuvi yanada tezlashgan hozirgi davrda keng miqyosda kirib kelayotgan xorijiy so'zlarni milliyashtirish uchun o'zbek tilining faqat o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanish yetarli bo'lmasisligi mumkin. Shunga ko'ra, zarur o'rnlarda mazkur masala yuzasidan qardosh turkiy tillar tajribalariga murojaat etish foydadan xoli bo'lmaydi. Buni bir nechta faktlar bilan asoslash mumkin.

Birinchidan, turkiy tillar turli ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra hududiy jihatdan bir-biridan ajralgan bo'lsanda, ularni lingvistik jihatdan bir-biriga bog'laydigan mushtarakliklar ko'p. Shunga ko'ra, o'zbek tiliga butunlay begona bo'lgan, fonetik va grafik jihatdan murakkab bo'lgan so'zlarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilgandan ko'ra, imkon qadar o'zbek tiliga yaqin, ya'ni qarindosh bo'lgan tillardan so'z organ ma'ulroq.

Ikkinchidan, professor E.Begmatov hozirda o'zbek tilida mavjud bo'Imagan umumturkiy so'zlarni tashqi manba emas, balki ichki manba sifatida baholash lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tub turkiy so'zlarning yoki ma'lum so'zlarning konkret (aniq) bir turkiy tilda mavjudligi bu so'zning faqat mana shu tilning mulki ekanligini bildirmaydi, balki bu so'z umumturkiy mulkdir. [9; 90]

Uchinchidan, hozirda yer yuzida mavjud 30 ga yaqin turkiy tillarning ayrimlari yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan, aksariyati milliyashtirish bilan bog'liq jiddiy muammolar bilan yuzlashib turgan bir paytda ularning o'zaro yaqin aloqada bo'lishi, "oldi-berdi" qilishi har bir turkiy til uchun, shu bilan birga, ularning umumiyl istiqboli uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek tilidagi *doska* so'zi rus tilidan to'g'ridan to'g'ri qabul qilingan. Bu so'z boshqa turkiy tillar, xususan, qirg'izchada *макта*, qozoqchada *мақта*, turkmanchada *tagta*, turkchada *yazi* (yozuv) *taktasi*, ozarbayjonchada *yazi lovhesi* deb ataladi. Ozarbayjon tilini hisobga olmaganda, bu so'zning keltirilgan barcha turkiy tillar uchun umumiyl bo'lgan *taxta* so'zi bilan ifodalanganini ko'rish mumkin. *Taxta* so'zi o'zbek tilida ham hozirgacha faol qo'llanib keladi, faqat boshqa ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Aslida, rus tilidan *doska* so'zi o'zlashgunga qadar o'zbek tilida ham shu vazifada *taxta* so'zidan foydalaniб kelingan. Hozirgi paytda kelib o'zbek tilida *taxta* so'zining "doska" ma'nosini arxaiklashgan:

TAXTA 2 esk. Bo'r bilan xat yozish uchun maxsus yasalgan mакtab o'quv quroli. Xonada o'ntacha eski chang bosgan parta, kiraverishdag'i devorga kattakon qora taxta qoqilgan edi. [10; 148]

Ko'rindiki, o'zbek tilida *doska* so'zining umumturkiy muqobili unutilgan, lekin bir qancha boshqa turkiy tillarda u hamon saqlanib qolgan.

Bozorga oid atamalardan biri bo'lgan *monopoliya* so'zi (yunoncha *mono* – tanho, *poleo* – sotaman: iqtisodiyotning muayyan sohasida yakka hukmonlik qilish) turk tilida *tekel* deb nomlanadi. *Tekel* so'zi tek (tanho, yolg'iz, bitta) va *el* (qo'l) so'zlarini qo'shish orqali hosil qilingan, ya'ni "yolg'iz qo'l", "bir qo'l" demakdir.

Dron so'zi (ingl. drone – g'o'ng'illash; erkak ari) o'zbek tilidagi texnologiya sohasiga mansub neologizmlardan

biri hisoblanib, “vazifasiga ko‘ra turli maqsadlarda foydalanishga mo‘ljallangan, avtomatik yoki masofadan boshqariladigan, kichik hajmdagi uchuvchisiz uchish apparati” ma‘nosini bildiradi. [11; 18] Bu so‘z o‘zbek tilida rus tili orqali o‘zlashgan bo‘lsa, ba‘zi turkiy tillarda uni milliylashtirishga harakat qilishgan. Xususan tatar tilida *nigomotsyz* (uchuvchisiz), turkman tilida *pilotsyz* *uçar* (uchuvchisiz samolyot), turk tilida *uçan göz* (uchar ko‘z) tarzida nomlangan.

Keltirilganlardan tashqari yana bir qancha zamonaviy tushunchalar ayrim turkiy tillarda milliy atamalar bilan nomlab kelinmoqda. Jumladan, *kreativ* so‘zi qozoq tilida *шығармашылық*, qirg‘iz tilida *чыгармачылық* (ijodiy, ijodkorlik), turk tilida *yaratıcı*, ozarbayjon tilida *yaradıcı* (*yaratuvchi*, ijodkor) so‘zi orqali, *onlayn* (ingl. *online* – operativ rejim) so‘zi qozoq tilida *желіде* (*tarmoqda*), turk tilida *çevrimiçi* (*çevrim+ichi* – atrof / doira ichi) so‘zi orqali ifodalanganini kuzatish mumkin.

Keltirilgan misollarga asoslanib aytish mumkinki, o‘zbek tiliga, asosan, ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan yangi so‘zlarni milliylashtirishda zarur o‘rinlarda qardosh turkiy xalqlar tajribalaridan unumli foydalanish o‘zining ijobiy samarasini berishi mumkin. Lekin bunda muayyan bir yangi so‘zni turkiy tillarning birortasidan to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olish kerak, degan xulosa kelib chiqmaydi. Boshqa turkiy tillarda milliylashtirilgan birorta yangi tushunchani o‘zbek tilining leksik, so‘z yasash tizimiga, shuningdek, fonetik va grafik xususiyatlariga mosligini e’tiborga olib nomlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbek tilining lug‘at boyligida forscha va arabcha so‘zlar salmoqli o‘rinni band etadi. Tilshunos olim O.Shukurovning tadqiqiga ko‘ra, o‘zbek tili umumiy lug‘at fondining 37,2 foizini o‘zlashma qatlama so‘zlari tashkil etib, shuning 10,9 foizi forscha, 10,7 foizi arabcha so‘zlar ulushiga to‘g‘ri keladi [12; 52]. Forscha va rabcha so‘zlarning katta qismi bir necha asrlar davomida o‘zbek tilining faol leksik qatlamiga chuquq singib ketgan. Tilshunos olim M.Mirtojiyev ham o‘z o‘rnida buni e’tirof etib o‘tgan: “Arabcha-forscha so‘zlar o‘zbek tili tabiatiga juda yaqin singishgani, o‘zbek xalqi esa bu so‘zlarni o‘z ona tili so‘zlarini qatorida qabul qilgani ham bor haqiqat. Negaki, nutq egalari kundalik hayotda istifoda etayotgan ayrim shunday so‘zlarni arabcha yoki forscha ekanini payqashmaydi, o‘z til so‘zlarini qatorida qabul qilishgan” [13; 3].

Bugungi kunda *maymun*, *laylak*, *kalamush*, *jigar*, *kalla*, *anjir*, *bodom*, *meva*, *changal*, *kulol*, *oshpaz*, *nevara*, *shakar*, *tuxum*, *non*, *chit*, *arra*, *kalit*, *lekit* kabi yuzlab so‘zlarning o‘zbek tiliga forschadan o‘tganimagini tasavvur qilish qiyin. Bunday so‘zlarning asl manbasini faqatgina soha mutaxassislar yoki maxsus etimologik lug‘atlar ko‘magidagina aniqlash mumkin.

O‘zbek va fors-tojik tilining o‘zaro aloqasi faqat tayyor leksik birliklar bilan cheklanmaydi. O‘zbek tilida bir qismi fors-tojikcha so‘zlardan tashkil topgan turli xil mavzuviy guruhga mansub bir qancha qo‘shma so‘zlar mavjud: *birdam*, *boshpana*, *arpapoya*, *yotoqxona*, *anjiryoq*, *bodomqovoq*, *gulyuz*, *diltortar*, *jonkuyar* kabi. Bundan

tashqari, bir qator forscha so‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘zbek tilida so‘z yasash xususiyatiga ega (*ulug‘vor*, *archazor*, *yoldor*, *bebosh*, *notanish*, *sersuv*, *tilshunos*, *terifurush* o‘txo‘r kabi) yoki, aksincha, forscha asosdan o‘zbekcha (turkiy) qo‘shimchalar orqali yangi so‘zlar yasash mumkin (*dutorchi*, *bandalik*, *andishali*, *mehrsiz*, *gumonsiramoq*, *bachkanalashmoq* kabi). Bu esa o‘zbek va fors-tojik tillari nafaqat badiiy ijod orqali, balki uzoq asrlik siyosiy, madaniy va maishiy aloqalar orqali bir-biriga mustahkam bog‘langanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tiliga, asosan, din va ilm-fan tili sifatida kirib kelgan arabcha so‘zlarning ta’siri tojik tiliga nisbatan uncha chuquq bo‘lmasa-da [14; 32], hozirgi o‘zbek tilining faol leksik qatlamida ular salmoqli o‘rinni egallaydi. Xususan, *davlat*, *xalq*, *viloyat*, *qonun*, *muammo*, *shoir*, *usta*, *xola*, *tanqid*, *rasm*, *haykal*, *askar*, *xabar*, *savol*, *javob* kabi ko‘plab so‘zlardan muayyan soha vakillari, shu bilan birga, jonli xalq tilida keng foydalaniladi. Arabcha o‘zlashmalarning bir qismi o‘zbek tilida yangi so‘zlar yasashda faol qatnashda: *bo‘yintumor*, *yondaftar*, *kelinsalom*, *ko‘ksulton*, *tilxat*, *dunyoqarash*, *asabbuzar*, *kitobsevar* kabi qo‘shma so‘zlar va *avalgi*, *vazirlik*, *ibratl*, *maslahatchi*, *zamondosh* kabi sodda yasama so‘zlarni bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Mustaqillikdan keyin ham yangi so‘zlar yaratish, shuningdek, tilga majburan kiritilgan ruscha-baynalmil so‘zlarni almashtirish uchun lozim o‘rinlarda fors-tojikcha va arabcha til birliklaridan foydalanildi. Masalan, *peshlavha*, *insonparvarlik*, *nogiron* (ruscha *инвалид* o‘rnida) *ma’muriyat* (ruscha *администрация* o‘rnida), *faol* (ruscha *актив* o‘rnida), *tahlil* (ruscha *анализ* o‘rnida), *rasmiyatichilik* (ruscha *бюрократия* o‘rnida) kabi.

Keyingi paytlarda avvaldan ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega bo‘lgan *jonli* so‘zi (fors-tojikcha asos + o‘zbekcha qo‘shimcha) o‘ziga yangi ma’nolarni orttirdi. Ular qo‘shiqchilik sohasiga oid “qo‘shiqni yolg‘ondan (fonogramma usulida) emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z ovozi bilan aytish” (*jonli ijro*) va internet sohasiga oid “biror mediya dastur yoki sport musobaqasini real vaqt rejimida boshqa manzilga uzatish” (inglizcha *live*, ruscha *прямой эфир*) ma’nosи. Yoki ingliz tilida *link*, rus tilida *ссылка* nomlari bilan yuritiluvchi yana bir internetga oid tushuncha o‘zbek tilida arabchadan o‘zlashgan *havola* so‘zi orqali ifodalanyapti.

Umuman, uzoq davrlar mobaynida o‘zbek tilining takomiliga katta hissa qo‘shgan, milliy so‘z mulkinig ajralmas qismiga aylangan forsiy va arabiylar o‘zlar bugungi global dunyoda ko‘plab tillar taqdirlari xavf ostida qolayotgan bir paytda o‘zbek tilining kelajagi uchun ham muhim yordamchi manbalardan biri bo‘lib xizmat qilishi lozim.

**Xulosa va takliflar.** Xullas, o‘zbek tiliga xorijiy tillar ta’siri ortib borar ekan, yangi o‘zlashmalarning muayyan qismini milliylashtirish o‘zbek tilining barqaror rivojlanishini kafolatlovchi asosiy tayanch kuch vazifasini bajaradi. Bunda, avvalo, jonli xalq tilida keng iste’molda bo‘lgan o‘z qatlama so‘zlarini ishga solish, qolaversa, o‘rni bilan qardosh turkiy xalqlar tajribalariga murojaat etish, shuningdek, keng jamoatchilik uchun tushunarli bo‘lgan fors-tojikcha va arabcha so‘zlardan unumli foydalanish eng maqbul yo‘l hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR

- Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Тошкент: Ўзбекистон: 1992. – Б. 62
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати. II жилди. II жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 171.
- Махмуд Кошғарий. Девону лугати-т-турк.– Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 159.
- O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. V jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 308.
- Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshq. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 299.
- Исмаилов F. Ўзбек тили терминология тизимларида семантик усуlda термин ҳосил бўлиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – Б. 10.
- Бектемиров X., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: Фан, 2002. –Б. 19.

8. Бегматов Э. Ўзбек адабий тилининг мустақиллик даври ривожига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. - 2006, №4. -Б.8
9. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. –Тошкент: Фан, 1985. –Б. 90.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. VI jildli. V jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – В. 148.
11. Shukurov O. Mustaqillik davri o'zlashmalarining qisqacha izohli lug'ati. – Qarshi: Intellekt, 2022. – В. 18.
12. Шукуров О. Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монография. – Карши: Интеллект, 2022. – Б. 52.
13. Миртоғиев М. Ўзлашган сўз – пайванд куртаги. –Тошкент: Ўзбекистон: 1988. –Б. 3.
14. Абдуллаев Ф. Тил қандай ривожланади? –Тошкент: Фан, 1972. –Б. 32.